



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



***Dastlabki ma’lumot
2024- yil yanvar-sentabr***

***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi***

Тел. 71-202-80-44 (45)

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-sentabr oyi, foizda)




2024- yil 1-oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 89 333 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 324 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 89 009 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-sentabr, mlrd so'mda)



So'nggi 5 yillik (2020- 2024- yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2022- yilning mos davriga nisbatan 110,8 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, oylar kesimida (2023- 2024- yillar)



2024- yilning yanvar-sentabr oyida o'sish sur'ati **109,2 %** ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-sentabr oyida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi 259 327,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 109,2 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 46 527,8 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 109,8%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 212 799,6 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 109,0%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 26 027,5 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 113,3 %) tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2024- yil yanvar-sentabr oy)

	Jami, mlrd so'm	2023- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	259 327,4	109,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8 789,5	108,5
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	18 107,5	109,0
Buxoro	14 359,3	108,3
Jizzax	6 912,4	108,2
Qashqadaryo	17 207,8	108,2
Navoiy	9 864,0	109,2
Namangan	16 500,0	109,5
Samarqand	23 271,1	108,5
Surxondaryo	16 310,8	109,2
Sirdaryo	4 208,7	107,7
Toshkent	24 397,1	110,5
Farg'ona	22 341,2	108,2
Xorazm	10 167,0	108,3
Toshkent sh.	66 891,0	109,5

2024- yilning yanvar-sentabr oyida 2023- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan respublikaning Toshkent (110,5%), Namangan (109,5 %) viloyatlari va Toshkent shahrida (109,5 %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi (Ulushi, foizda)



Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 25,8 % bilan 66 891,0 mlrd so‘mni tashkil etdi.

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Sirdaryo viloyati 1,6 % bilan 4 208,7 mlrd so‘mni tashkil etdi.

2023- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o‘shish kuzatildi.




Hajmi, mlrd. so‘m

Toshkent sh.	66 891,0
Toshkent	24 397,1
Samarqand	23 271,1
Farg‘ona	22 341,2
Andijon	18 107,5
Qashqadaryo	17 207,8
Namangan	16 500,0
Surxondaryo	16 310,8
Buxoro	14 359,3
Xorazm	10 167,0
Navoiy	9 864,0
Qoraqalpog‘iston Resp.	8 789,5
Jizzax	6 912,4
Sirdaryo	4 208,7




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-sentabr oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 212 799,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 9,0 % ga oshdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 82,1 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 9,8 % ga o'sdi va 46 527,8 mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 18,0 % ulushiga to'g'ri keldi.




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko‘ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi (96,9 %), Surxondaryo (96,5 %) va Xorazm (96,3 %) viloyatlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 18,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush Toshkent shahri (44,0 %), Toshkent (15,5 %), Samarqand (13,7 %) va Farg‘ona (11,1 %) viloyatlarida kuzatildi.



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*)

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi**

4 367,2

Andijon

5 294,6

Buxoro

6 983,4

Jizzax

4 550,9

Qashqadaryo

4 793,9

Navoiy

9 111,4

Namangan

5 338,6

Samarqand

5 486,0

Surxondaryo

5 619,6

Sirdaryo

4 572,7

Toshkent

7 938,4

Farg'ona

5 458,9

Xorazm

5 062,5

Toshkent sh.

21 802,1

2024- yilning yanvar-sentabr oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 6 994,2 ming so'm (2023- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 106,9 %)ni tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Toshkent shahri (21 802,1 ming so'm), Navoiy (9 111,4 ming so'm) va Toshkent (7 938,4 ming so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-sentabr), foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


**Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2024- yil yanvar-sentabr)**

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	26 027,5	113,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 090,3	112,7
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	2 748,3	113,5
Buxoro	1 745,9	116,1
Jizzax	1 739,7	112,4
Qashqadaryo	2 100,6	109,5
Navoiy	710,9	118,9
Namangan	2 752,5	113,2
Samarqand	2 099,4	105,9
Surxondaryo	3 143,3	115,6
Sirdaryo	398,3	111,8
Toshkent	2 004,3	111,3
Farg'ona	1 803,9	116,6
Xorazm	1 968,6	115,3
Toshkent sh.	1 721,7	118,4


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar
aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda
(2024- yil yanvar-sentabr)**















**Hududlar kesimida uyushmagan
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so'm
(2024- yil yanvar-sentabr)**



Respublika bo'yicha 2024- yilning yanvar-sentabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 26 027,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 113,3% ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 13 247,5 mlrd so'mni (118,6%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 12 780,0 mlrd so'mni tashkil etdi (108,4 %).












2024-yilning yanvar-sentabr oyida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 13 247,5 mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (6 342,0 mlrd so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>6 342,0 mlrd so'm</p>  <p>46,7 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>1 629,4 mlrd so'm</p>  <p>12,0 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>1 375,2 mlrd so'm</p>  <p>10,1 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>627,3 mlrd so'm</p>  <p>4,6 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>667,7 mlrd so'm</p>  <p>4,9 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>472,4 mlrd so'm</p>  <p>3,5 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>471,8 mlrd so'm</p>  <p>3,5 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>564,9 mlrd so'm</p>  <p>4,2 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>333,7 mlrd so'm</p>  <p>2,5 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>295,3 mlrd so'm</p>  <p>2,2 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>221,4 mlrd so'm</p>  <p>1,6 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>567,0 mlrd so'm</p>  <p>4,2 %</p>

2024- yilning yanvar-sentabr oyida, respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 12 780,0 mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 10 006,6 mlrd so'm, qo'y va echkilar – 2 084,0 mlrd. so'mni, otlar – 370,3 mlrd so'mni, parrandalar – 50,4 mlrd so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>5 911,6 mlrd so'm</p>  <p>47,2 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>2 398,4 mlrd so'm</p>  <p>19,2 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>1 696,0 mlrd so'm</p>  <p>13,6 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>1 802,0 mlrd so'm</p>  <p>14,4 %</p>	<p>Otlar</p> <p>370,3 mlrd so'm</p>  <p>3,0 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>282,1 mlrd so'm</p>  <p>2,3 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>28,3 mlrd so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>18,8 mlrd so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>2,3 mlrd so'm</p>  <p>0,02 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>1,0 mlrd so'm</p>  <p>0,01 %</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- oktabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 25 458 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 79 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 25 379 tani tashkil qildi.

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-sentabr)

	Jami mlrd so'm	2023- yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	120 726,2	111,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7 451,6	111,5
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	8 441,5	111,8
Buxoro	6 630,8	113,1
Jizzax	3 745,8	111,0
Qashqadaryo	11 662,4	109,3
Navoiy	3 523,2	112,2
Namangan	12 242,3	113,1
Samarqand	13 054,6	112,2
Surxondaryo	5 529,6	107,6
Sirdaryo	2 415,4	110,6
Toshkent	8 512,0	111,0
Farg'ona	12 380,5	111,3
Xorazm	6 946,9	111,8
Toshkent sh.	18 189,6	111,7

2024- yilning yanvar-sentabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 120 726,2 mlrd so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 111,3 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 85,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, foizda
O'zbekiston Respublikasi	89 344,8	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 909,9	2,1
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	4 798,9	5,4
Buxoro	3 515,9	3,9
Jizzax	9 288,7	10,4
Qashqadaryo	2 645,3	3,0
Navoiy	2 940,0	3,3
Namangan	3 154,4	3,5
Samarqand	3 191,0	3,6
Surxondaryo	1 303,4	1,5
Sirdaryo	426,8	0,5
Toshkent	4 629,9	5,2
Farg'ona	4 893,3	5,5
Xorazm	4 444,6	5,0
Toshkent sh.	42 202,7	47,2


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Toshkent shahri (42 202,7 mlrd so'm), Jizzax (9 288,7 mlrd so'm) va Farg'ona (4 893,3 mlrd so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd so‘m)




2024- yilning yanvar-sentabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishdan tashqari*) 89 344,8 mlrd so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 24,1 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 37 948,9 mlrd so‘m (o‘shish sur‘ati – 152,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 51 395,9 mlrd so‘m (o‘shish sur‘ati – 109,2 %)ni tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os‘ish sur‘atlari, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’i nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so‘mda



Respublika bo‘yicha 2024- yilning yanvar-sentabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 282 835,9 mlrd so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 10,0 % ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi

27,3 %

77 224,8 mlrd. so‘m

Yirik korxonalar

72,7 %

205 611,1 mlrd. so‘m

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 205 611,1 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 109,1 % ga to‘g‘ri keldi. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 72,7 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-sentabr)

	Jami mlrd so'm	2023- yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	282 835,9	110,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4 298,5	113,5
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	8 182,2	109,1
Buxoro	11 600,7	106,1
Jizzax	3 240,6	144,3
Qashqadaryo	5 358,5	105,7
Navoiy	3 041,6	108,2
Namangan	11 567,4	111,2
Samarqand	17 280,7	121,9
Surxondaryo	6 736,2	108,8
Sirdaryo	4 098,3	106,3
Toshkent	32 130,7	113,2
Farg'ona	15 459,6	108,4
Xorazm	5 553,2	107,5
Toshkent sh.	154 287,7	107,6

2024- yil 1- oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 48 123 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 342 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 47 781 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Qoraqalpog'iston Respublikasi (183,0 %), Jizzax (179,0 %) va Samarqand (163,2 %) viloyatlarida kuzatildi.